



IQTIDORLI TALABALAR,  
MAGISTRANTLAR, TAYANCH  
DOKTORANTLAR VA DOKTORANTLARNING  
**“TAFAKKUR VA TALQIN”**

MAVZUSIDAGI  
RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI  
ILMIY-AMALIY ANJUMAN  
**TO'PLAMI**



Buxoro - 2023

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**MAGISTRATURA BO'LIMI**

**IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR, TAYANCH  
DOKTORANTLAR VA DOKTORANTLARNING**

**TAFAKKUR VA TALQIN**

---

**mavzusida**

**Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman to'plami**

**(II qism)**

Buxoro 2023-yil, 17-may

## Tahrir hay'ati

- |                         |   |
|-------------------------|---|
| <b>O.X.Xamidov</b>      | - Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;                             |
| <b>R.G'.Jumayev</b>     | - Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent;            |
| <b>T.H.Rasulov</b>      | - Fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), dotsent;                  |
| <b>A.A. Turayev</b>     | - Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;  |
| <b>D.R. Djurayev</b>    | - Fizika-matematika fanlari doktori, professor;                       |
| <b>S.Q. Qaxxorov</b>    | - Pedagogika fanlari doktori, professor;                              |
| <b>M.Y. Ergashov</b>    | - Kimyo fanlari nomzodi, professor;                                   |
| <b>S. Bo'riyev</b>      | - Biologiya fanlari doktori, professor;                               |
| <b>B.N.Navro'z-zoda</b> | - Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;                             |
| <b>D.S. O'rayeva</b>    | - Filologiya fanlari doktori, professor;                              |
| <b>A.R.Hamroyev</b>     | - Pedagogika fanlari doktori, (DSc) dotsent;                          |
| <b>M.B.Ahmedova</b>     | - Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent;        |
| <b>B.E.Qilichov</b>     | - BuxDU "Ozbek tilshunosligi va jurnalistikasi" kafedrasi professori; |
| <b>E.B.Dilmurodov</b>   | - Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);           |

### Mas'ul muharrir:

**A.A. Turayev** – magistratura bo'limi boshlig'i f.-m.f.f.d., (PhD) dotsent

### Musahhish:

**S.B.Shamsiddinova** – bosh muharrir

**T.Sh.Ergashev** – Magistratura bo'limi bosh mutaxassisi

**D.R.Rahmatova** – Magistratura bo'limi mutaxassisi

Anjuman 2023-yilga mo'ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 02.05.2023 yildagi 118-sod buyrug'iga asosan ushbu Respublika ilmiy-amaliy anjuman tashkil etildi. To'plamda iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning ilmiy izlanishlari, tajriba almashish, sohalarda amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish va bu boradagi takliflarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-amaliy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Mazkur to'plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma'lumotlar hamda bildirilgan fikr va mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.**

## O'ZBEK TILIDA SHAXS MAYDONINING IFODALANISH USULLARI

*Jumayev Erkin*

*Boltayevich,*

*BuxDU f. f. d. PhD*

*Nurullayeva Gulshana*

*Xayrullayevna,*

*BuxDU, Lingvistika: nemis tili. magistranti*

**Annotatsiya:** Har bir til “Til”ga aylanishi uchun bir necha ko’plab tarixiy davrlarni bosib o’tgan va yillar osha til me’yorlari vujudga kelgan. O’zbek tili ham shunday bosqichlardan pag’onalarda ko’tarilib sayqallangan. Shaxs ish harakatning so’zlovchi tomonidan uning bajaruvchisiga tegishli ekanligini bildiruvchi o’zaro qarama-qarshi shakllar tizimidan iborat grammatik kategoriya yoki morfologik ko’rsatkichdir. Ushbu maqolada o’zbek tilida shaxsning ifodalanishi haqida fikrlarimizni misollarga tayangan holda bayon etishga harakat qildik.

**Kalit so’zlar:** shaxs maydoni, morfologik ega, lug’aviy ega, so’zlovchi, tinglovchi, lisoniy, kommunikatsiya, nutqiy amal, tejamkorlik xususiyati

**Kirish:** O’zbek tilshunosligi o’zining tejamkorlik xususiyati bilan boshqa tillardan, xususan hind-yevropa til oilalaridan farq qiladi. O’zbek tilshunosligida ega so’z, so’z birikmasi, iboralar yordamida ifodalaniladi degan fikrlar ilgari suriladi. Ona tilimizda gap haqida fikr yuritganimizda „so’z gaplar“ degan jumлага duch kelamiz ya’ni bitta so’zdan iborat gaplar ham mavjud. Bunday gaplar asosan matnda muayyanlashadi. So’z gaplarning yana bir sintaktik xususiyati ularning gap tarkibida alohida pozitsiyada turishi , ya’ni boshqa gap bo’laklari bilan bog’lanmasligidir va yakka o’zi gapsifatida „yashay olishi“, hamisha lisoniy alohidalikni saqlab qolishi bilan belgilanadi. Chunonchi: Yengil tortdingizmi, qizim? – Shukur. ( Abdulla Qahhor). Ko’rinadiki, so’z – gaplarning umumiyligi sintaktik xususiyati ular kesimlilik qo’shimchalarini qabul qilmagan holda ham gap va uning markazini tuza olishidadir.

**Asosiy qism:** Tilshunos G’. Zikrillayevning fikricha, fe’lning shaxsni ifodalagan shakli ham subye’ktini, ham uning kesimlik belgisini bildiradi.

F.Safarovning fikrlarida ham bunga yana bir bora amin bo'lamiz. Uning fikriga ko'ra o'zbek tilida qo'shimcha bilan ifodalanadigan ya'ni *morfologik ega* ham borligini e'tirof etib, o'zbek tilida ifodalanish usuli bo'yicha egani ikki turga ajratgan:

1. Morfologik ega ,masalan *izla* deganda II-shaxs birlik ma'nosini bildiruvchi ega ya'ni **sen** nazarda tutiladi. Yoki *o'qituvchimiz* deganda I-shaxs ko'plik ma'nosini anglashiladi.

2. Lug'aviy ega esa so'z, so'z birikmasi va iboralar bilan ifodalanishidir. Masalan: *Qor yog'di. U keldi. Qo'ng'iroq chalindi. Dars boshlandi. Talaba gapirdi. Biz boramiz. Sen sotasan.*<sup>1</sup>

So'zlarning grammatik ma'nolarini ifodalovchi maxsus til vositalari qatoriga kiruvchi kelishik, son, egalik, shaxs, mayllarni ifodalovchi qo'shimchalar kiradi. Shulardan shaxs, son qo'shimchalari Grammatik vositalarisiz aniqlab bo'lmaydi. Masalan, *ko'ylak, ko'ylakni, ko'ylakga, ....ruchka, ruchkaga, ruchkani, ....* so'zlarining o'zi tugallangan fikr anglatmaydi. Ularga Grammatik shaxs, son, zamon qo'shimchalarini qo'shsak, tugallangan fikrni bildiradi. Masalan, *Ko'ylakni oldim, ko'ylakni ko'rdim, ....ruchkamga tegma, ruchkangni ol, ....* Oldim so'zidagi –**m** I-shaxs yasovchi morfologik qo'shimcha hisoblanadi. Tegma so'zidagi –**ma** esa II-shaxs yasovchi morfologik vositadir.

Shaxs-ish-harakatning so'zlovchi nuqtai-nazaridan unung bajaruvchisiga aloqadorligini ifodalovchi, o'zaro qarama-qarshi shakllar tizimidan iborat Grammatik katagoriya, morfologik ko'rsatgichdir. Shaxs shakllari ish-harakatning so'zlovchiga(1-shaxs), tinglovchiga(2-shaxs), va suhbatda ishtirok etmagan o'zga shaxsga(3-shaxs) qarashliligini bildiradi. Harakat obyektining shaxsi ko'p tillarda, jumladan, turkiy tillarda asosan fe'l orqali ifodalanadi.

Masalan: *ko'rdim, ko'rganman-* 1-shaxs; *ko'rding, ko'rgansan-* 2-shaxs; *ko'rdi, ko'rgan-* 3-shaxs shakllaridir. Nemis tilida esa shaxsni ifodalovchi vositalar sifatida shaxs kategoriyasi fe'lning boshqa kategoriyalari( mayl, zamon va nisbat) bilan paradigmatic va funksional munosabatlar orqali bog'lanadi. Ayniqsa shaxs kategoriyasini son kategoriyasisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shunung uchun ularni

**Iqtidorli talabalar, magistrantlar, tavanch doktorantlar va doktorantlarning ilmiy maqolalar to'plami – 2023.**

[buxdu.uz](#)

birgalikda nomlab, shaxs-son kategoriyasi, ushbu ma’noni ifodalovchi shakllar esa, shaxs-son qo’shimchalari deb ataladi. Shaxs tushunchasi muayyan leksemalar bilan kishilik olmoshlari tizimida, maxsus affiksal morfemalar (egalik qo’shimchalari) yordamida otlarda ham ifodalanishi mumkin. Bunda kishilik olmoshlari (men, sen, u, biz, siz, ular)bajaruvchi shaxslarni, egalik qo’shimchalari esa (kitobim, kitobing, kitobi) biror narsa buyumning qaysi biriga qarashli ekanligini bildiradi.

I-shaxs shakllarining morfologik vositalari: *-man, -miz, -m, -k, -(a)y va -(a)ylik* yordamida yasaladi. Masalan: *boraman, boramiz, bordim, boray, boraylik. Toshkentda bir ro’zg’orga yetadigan yukim bor. Olib kelsam degandim.....Siz qatori, qo’ni-qo’shnilaringiz qatori yashamoqchiman.* (Said Ahmad “Jimjitlik” 72-bet). *Shunaqa gaplardan qachon qutulamiz.* (A.Qahhor “Sinchalak”)

II-shaxs shakllarining morfologik vositalari: *-san, -sanlar, -siz, -sizlar, -ng, -ngiz, -nglar, -ngizlar, -laring, -laringiz, -(i)sh, -(i)ng, -(i)nglar, -(i)ngiz, -(i)ngizlar* bilan hosil bo’ladi. *O’zing bilasan. Qarishing bor. Issiqsovug’ing bor, yotish-turishing bor. Yoningda bittagina hamdaming bo’lsin degandim-da, yana o’zing bilasan. Zerikib qolyapsan, bolam. Ermakka bo’lsa ham biron ishning boshini tutsang bo’lardi. Bu joyga o’zlaringiz sig’may qolibisz<sup>2</sup>.* (Said Ahmd “Jimjitlik” 72-bet). *“Meni savdoyi dadang bilan tashlab ketasanmi<sup>3</sup>, deb yig’ladi, degan xayolga bordi.* (A.Qahhor “Sinchalak”14-bet).

III shaxsda esa aniq va ma’lum qo’shimchalarni ayta olmaymiz. Mayl va zamon qo’shimchalari ayni paytda shaxs ko’rsatkichi vazifasini bajaradi. Masalan: *-di* qo’shimchasi xabar maylining o’tgan zamon ko’rsatkichi bo’lishidan tashqari III-shaxsni ham ko’rsatadi. *Ammo Mirvalining sabri chidamay, kampir yo’g’ida sandiq titib, soatni olar, uch- to’rt kun bolalarga maqtanib yurardi.* (Said Ahmad “Jimjitlik”24-bet). *–sin* qo’shimchasi buyruq yoki istak bilan birga III-shaxsni ham ifoda etadi.

*Tolibjon bo’layotgan ishlarni bilib ba’zan tajang, ba’zan isyonkor tabiatini kuch bilan bosib yurardi.* (Said Ahmad “Jimjitlik” 11-bet).

*Sen-u men o’z toshimizga bir botmon bo’lib yuribmiz-da, buning toshi bilan tortilsak, posangiga yaramaymiz.* (A.Qahhor “Sinchalak”16-bet).

Ustoz G'.Zikrillayevning ta'kidlashlaricha hozirgi o'zbek adabiy tilida fe'l turkumida shaxs, son, va hurmat ma'nolari bir xil shakl tizimi bilan ifodalanadi. Bunda shaxs yetakchi va asosiy hisoblanadi. An'anaviy tilshunoslikda u barcha tadqiqotda olib qaraladi. Son aksariyat ishda shaxs bilan uzviy bog'langan deb chiziqcha qo'yib (shaxs-son tarzida) yoziladi. Hurmat kategorial ma'no deb qaralmaganidan shakllari izchil o'rganilmagan. Holbuki eng kichik shakl (fe'lning o'zagi) da uchala kategorial ma'no mayl va zamon bilan birgalikda o'z ifodasini topadi. Bunday holda tejamkorlik yuqoridarajada zarur bo'ladi. Ayrim yasama shaklda ham beshala kategoriya bitta qo'shimcha (masalan –di ) orqali ifodalanadi. Uchala kategorial ma'noni birgalikda ifodalaydigan qo'shimcha tizimi ham mavjud.

Shaxs ma'nosi mazkur shakllarning barchasida belgilangan bo'lib, predikativlikni (kesimlilik) shakllantirishda zarur unsuri sifatidea ishtirok etadi. Shaxs fe'l o'zagining lug'aviy ma'nosiga ko'ra inson va boshqa jonli , jonsiz mavjudotni anglatadi. Bu uning lisoniy xususiyatidir. Nutqiy amal (nutq akti) yoki kommunikatsiya jarayonida fe'lning mazkur shakllari *so'zlovchi, tinglovchi* va *o'zga* vazifasini bajaradi. Bular grammatikada I, II, III shaxs deb yuritiladi. Fe'l shakllarining morfologik tasnifi shu asosda amalgam oshiriladi. Mayl va zamon kategoriyasida ham bu tasnif inobatga olinadi ( II- shaxsdagi buyruq mayli shakli kabi).

Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak shaxs, son va hurmat shakllari aniqrog'i qo'shimchalarining morfologik xususiyatini turli nuqtai nazardan o'rganish mumkin. Jumladan ularning so'z tarkibida boshqa morfemalarga nisbatan qo'llanadigan o'rnini aniqlash ya'ni distributiv tahlil qilish yoki tuslanishli shakllarni hosil qilishdagi o'ziga xosliklari jihatidan olib qarash mumkin. Bundan tashqari mazkur shakllarning tuzilishi, tarkibi, shaxs, son va hurmat qo'shimchasiga ajralish-ajralmasligi nuqtai nazardan ham o'rgansa bo'ladi. Maqsadimiz shaxs, son va hurmat shakllarining morfologik xususiyatini atroflicha bayon qilish bo'limgaganidan bu haqda qisqa ma'lumot berish bilan chegaralanamiz. Asosiy diqqat - e'tiborni shaxs, son va hurmat shakllarining mazmuni, ma'nolari va qo'llanilish tahliliga

**Iqtidorli talabalar, magistrantlar, tavanch doktorantlar va doktorantlarning ilmiy maqolalar to'plami – 2023.**

[buxdu.uz](https://buxdu.uz)

qaratamiz. Boshqacha aytganda, lisoniy ya'ni paradigmatic xususiyati va uning kontekst ta'sirida o'zgarishi o'rganiladi.

### **ADABIYOTLAR**

1. A.X. Tursunov, Z.Z.Tursunov, M.M.Tojixo'jayev : Lingvistika(nemis tili) magistratura mutaxasisligiga kiruvchilar uchun mutaxasislik fanlaridan DASTUR, Namangan-2021
2. Said Ahmad "Jimjitlik", "Sano Standart"nashriyoti, Toshkent- 2016
3. Y. Ro'ziyev : Nemis tili zamon shakllarining publisistik matnlarda pragmatik maqsadda qo'llanilishi, BuxDU- 2020
4. Said Ahmad "Jimjitlik", "Sano Standart"nashriyoti, Toshkent- 2016
5. Г.Зикриллаев "Рух ва тил" Фан нашрийоти. Тошкент-2018

#### **Internet manbalar:**

1. [http:// www.Ziyonet](http://www.Ziyonet) – O'zbekiston internet tarmog'i
- 2.[http:// www.Google](http://www.Google). De
- 3.[http:// www.Librarybooks.ne](http://www.Librarybooks.ne)
- 4.[www.Lehrer-online.de](http://www.Lehrer-online.de)
- 5.[www.Fachdidaktik](http://www.Fachdidaktik) – ienecke. De
- 6.[www.Paperball](http://www.Paperball). De

### **JURNALISTIKA**

#### **JINOYAT OLAMIGA KIRIB QOLGAN O'SMIRLAR MAVZUSINING MATBUOTDA YORITILISHI**

*Berdiyorova Sevinch Aliddin qizi,  
BuxDU Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar  
ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada jinoyat olamiga kirib qolgan o'smirlar mavzusining matbuotda yoritilishi, uning tartiblari hamda bu singari materiallarning yoshlarning jamiyatda kim bo'lib yetishiga ta'siri haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** jurnalistika, jinoyat olami, o'smirlar, OAV, kelajak, realistik, axborot, ijtimoiy, media, OAV

<b>F.B. Alimova</b>	Zamonaviy ingliz tilidagi neologismlar va ularning nutqda qo'llanilishi.....636.
<b>G.I. Khamraeva</b> <b>N. Safarova</b>	The impact of problem-based learning on developing students' critical thinking skills .....639
<b>S.R. Mirzoyeva</b>	Ingliz va o'zbek tillardagi inson boshi bilan bog'liq iboralarning kognitiv asoslari .....644
<b>Z.X. Yoriyeva</b>	Ingliz tilidan o'zlashgan tibbiy birliklarning genezisi va uzial ma'nolari .....647
<b>M.G'. Rabiyeva</b> <b>A.S. Sattarova</b>	Ingliz va o'zbek tillari so'z yasalishi tizimida derivatsiya .....652
<b>N.R. Abdurakhmonova</b>	The effective methods of teaching idioms to efl learners ..... 655

### **70230101- Lingvistika: fransuz tili**

<b>O.Q. Matyakubov</b>	Fransuz va o'zbek ertaklarida naqlarning lingvomadaniy hamda stilistik tahlili .....658
<b>M.H.Xamidova</b> <b>Sh. Sharipova</b>	Shamol va uning sinonimlarining badiiy adabiyotda inson ruhiyatini tasvirlashdagi ahamiyati .....664
<b>S.O. Sabirova</b>	Le probleme de la definition de la subordonnee compleutive en français.....666
<b>R.R. Bobokalonov</b> <b>M. Bekmatova</b>	L'onomastique sacree-un groupe lexico-semantique complexe de mots unis par l'idée sacree. (agionim, eortonyme, iconyme, eclesionym, agiotoponyme).....671
<b>O.I. Adizova</b> <b>B.H. Azimov</b>	Stendal ijodining o'ziga xos xususiyati.....677
<b>M.B. Oumarova</b>	Les types du verbe en français.....685
<b>Z. B. Rahmonova</b>	Feedback on the concept.....690
<b>O.I. Adizova</b> <b>M. K. Mamadaminova</b>	La réflexion sur les méthodes d'apprentissage des langues étrangères.....690
<b>G.G'. Rustamova</b>	Fransuz va o'zbek asarlarida insoniy qadriyatlar .....695

### **70230101 - Lingvistika nemis tili**

<b>Y.B. Ro'ziyev</b> <b>Z.S. Qosimova</b>	Hozirgi o'zbek adabiy tilida tinish belgilarining qo'llanish tamoyili va vazifasi .....700
<b>Y.B. Ro'ziyev</b> <b>Sh.Sh. Halimova</b>	Nemis va o'zbek mikromatnida o'tgan zamonning ifodalananish usullari .....706
<b>E.B. Jumayev</b> <b>G.X. Nurullayeva</b>	O'zbek tilida shaxs maydonining ifodalananish usullari .....710

### **Jurnalistika**